



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 26 - iyul

VI-67-131-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumanida 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyul oyining birinchi o'n besh kunlik ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022-yilda mehnat balansini va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi 2021-yil 14-dekabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 55-sonli bayoni ijrosi yuzasidan tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyul oyining birinchi o'n besh kunlik ijrosi to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti eshitilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyul oyining birinchi o'n besh kunlik ijrosi to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari (S.Astonov, S.Saidov, A.Otamurodov, Sh.Eshmurotov), tuman hokimining o‘rinbosarlari, tegishli korxonalar va tashkilotlar hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda iqtisodiy o‘rni ta‘minlash, xizmatlar sohasini muhim darajaga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki barobarga oshirsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) dasturda berilgan topshiriqlar ijrosini nazoratga olish va ijrosi yuzasidan har o‘n besh kunda belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G.O‘rolov)larga tumanda xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar yuzasidan olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov